



# ENERGIYA TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARINI O'ZLASHTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING ROLI

PROGNOZLASHTIRISH VA MAKROIQTISODIY  
TADQIQOTLAR INSTITUTI

TAYYORLOVCHI  
MAKRO LOYIHA  
TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT LOYIHA

# Energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishda soliq imtiyoziyalarining roli

## 1.1 Soliq imtiyozlari va kam energiya iste'mol qiladigan korxonalar

"Critical junctures" - tanqidiy birikmalar yondashuvi (Gonsales-Eguino, 2015) va "Political Networks" - siyosiy tarmoqlar kabi qarashlar (Nussbaumer va boshq., 2012) qonunchilik ko'pincha jarayonlarga, aniqrog'i oldingi voqealar asosida chiqadigan qonunlarga ta'sir etadi deb qarashadi. Bu esa tashqi ta'sir va kutilmagan shoklar sharoitida mayjud qarorlarni odatdagidan ancha oldin ko'rib chiqish va o'zgartirish kiritish imkoniyatini yaratdi. Fosterning (2000) fikriga ko'ra, iqtisodiy shoklar korxonalarda konservativizmni zaiflashtiradi va o'zgarishlarga moyillikni oshiradi - "**regulation glass doors**". Fransiya, Germaniya va Buyuk Britaniyada yashil iqtisodiyotga o'tish dasturlarini o'rganish borasidagi adabiyotlar mayjud an'anaviylikdan qochib, yangi imkoniyatlarga yo'l ochishga undaydi. COVID-19 epidemiyasi mamlakatlarning mayjud vaziyatga yangicha qarashlariga, yashil tiklanish dasturlari uchun o'z eshiklarini ochishlariga hamda o'zlarining "yashil" tiklanish dasturlarini ishlab chiqishlariga turtki berdi.

*1-gipoteza: Soliqlarni kamaytirish strategiyasi kam energiya iste'mol qiladigan korxonalar uchun moliyaviy cheklovlarini yengillashtirishi mumkin.*

## 1.2 Korxonalar va ularning innovatsion faoliyati uchun rag'bat

"Yashil" tiklanish dasturlarini ishlab chiqishda nafaqat "yashil" va "iqtisodiy tiklanish", balki "makro-iqtisodiy siyosat"ni ham e'tiborga olish kerak. Izlanish natijalari shuni ko'rsatadiki, bandlik darajasi yuqori bo'lgan hududlar ko'proq mehnat talab qiladigan tarmoqlar uchun "yashil tiklanish" fondlarini tashkil etishga moyildirlar, shuningdek, eksportga yo'naltirilgan davlatlar esa sanoat sohasini modernizatsiya qilish uchun ko'proq investitsiya yo'naltirishga majbur bo'ladilar. Bundan tashqari, hukumatlar o'zlarini manfaatdor bo'lgan bunday "yashil" texnologiyalar yoki tarmoqlarga ko'proq resurslarni qayta ajratishi mumkin. Atrof-muhitning barqarorligini ta'minlash uchun iqtisodiy muhim jihatlarni ijtimoiy-ekologik nuqtai nazardan ustun qo'yish odatiy hol bo'lganligi sababli, jamiyat va insonlar unga qo'shimcha xarajatlarni **ijtimoiy, ekologik va vaziyat nuqtai** nazardan yondashgan holatda amalga oshirishadi.

*2-gipoteza: Biznes faoliyati ko'rsatkichlari pastroq bo'lgan korxonalarda energiya xarajatlarni kamaytirish uchun yangi texnologiyalarga investitsiya kiritish ehtimoli yuqoriroq bo'lishi mumkin.*

## 2. Metodologiya

### 2.1 Ekonometrik model

Ushbu tadqiqotda soliqlarni kamaytirish siyosati doirasida energiya kam iste'mol qiladigan korxonalarining energiya tejamkor texnologiyalarga ko'proq sarmoya kiritishning ahamiyatini aniqlash uchun "Difference-In-Difference" yondashuvidan foydalanildi. Panel ma'lumotlardan esa "yashil" iqtisodiy dasturlar, samaradorlik va "yashil" innovatsiyalar o'rtaSIDagi bog'liqliknini aniqlashda foydalanildi. Ushbu tadqiqot quyidagi ekonometrik model orqali baholandi:

$$I = \beta_0 + \beta_1 \times Post_t + \beta_2 \times Treat_i + \beta_3 \times Post_t \times Treat_i + \beta_i \times X_{i,t} + \mu_t + \gamma_i + \varepsilon_{i,t} \quad (1)$$

$I_{i,t}$  mustaqil bo'lmagan (endogen) o'zgaruvchi bo'lib, "yashil" texnologiyalarni rivojlantirishga sarflangan jami aktivlarning ulushi sifatida aniqlanadi.  $Post_t$  dummy o'zgaruvchi, soliq kamaytirish dasturi kuchga kirgandan keyingi holat 1 aks holda 0 deb belgilab oldindi. Bu bizning eksperiment va taqqoslash guruhalimiz o'rtaSIDa bo'linuvchi bo'lib xizmat qiladi. Agar korxona energiya tejamkor texnologiyalarni o'zlashtirsa, 1 aks holda esa 0 deb olinadi. Soliq imtiyozlari korxonalarining rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash uchun biz  $\beta_3$  parametriga qaraymiz. Bundan

tashqari, Tobinning Q o‘zgaruvchisi, korxona hajmi va korxona tashkil etilgan vaqt va boshqa ikkilamchi o‘zgaruvchilar ham hisobga olindi.

## 2.2 Ma’lumotlar

Xitoy provinsiyalari kesimida sanoat korxonalarining statistik ma’lumotlari Xitoy Fond bozori va buxgalteriya tadqiqotlari ma’lumotlar omboridan (CSMAR) olindi. Har bir korxonaning asosiy xususiyatlari va uning moliyaviy faoliyati, moliyaviy hisobotlari va moliyaviy hisobotlaridan turli xil moliyaviy ko‘rsatkichlar ma’lumotlar to‘plamiga kiritildi.

## 2.3 Asosiy tahlil natijalari

2017-yilda Xitoyning Shandun provinsiyasi hukumati yuqori texnologiyalardan foydalanuvchi korxonalar uchun 15 foizlik daromad soliqlari bo‘yicha imtiyozlar taklif etdi. Tahlil natijalari energiya tejamkor texnologiyalarni o‘zlashtirgan korxonalarga berilgan soliq imtiyozlari energiya tejamkorligini 14 foizga oshishiga olib keldi.

### 1-jadval. Regressiya natijalari

	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)
	Probit	Tobit	Fixed Effect	Probit	Tobit	Fixed Effect
Post	-0.788*** (0.007)	0.021*** (0.002)	-0.019*** (0.003)	0.031 (0.021)	0.004*** (0.002)	-0.004 (0.005)
Treat	-0.077 (0.111)	-0.005*** (0.003)	0.021*** (0.007)	0.031** (0.012)	0.013*** (0.001)	0.021*** (0.003)
DID Effect	0.090*** (0.019)	0.008*** (0.002)	0.004*** (0.002)	0.021*** (0.000)	0.005*** (0.002)	0.005*** (0.003)
Sales Growth	0.067*** (0.031)	0.009*** (0.003)	0.007*** (0.006)	-0.005 (0.061)	-0.003*** (0.000)	0.005** (0.004)
Tobin’s Q	0.071*** (0.022)	0.006*** (0.003)	0.009*** (0.003)	-0.008 (0.007)	0.006*** (0.000)	0.005*** (0.000)
Firm Size	0.087*** (0.021)	0.009*** (0.003)	0.005*** (0.001)	0.081*** (0.021)	-0.007*** (0.000)	-0.006*** (0.000)
Firm Age	0.088*** (0.021)	0.006*** (0.003)	0.007*** (0.004)	-0.679*** (0.022)	-0.012*** (0.000)	-0.007*** (0.000)
Constant	-1.088*** (0.399)	-0.004*** (0.002)	0.251*** (0.007)	-2.341*** (0.459)	0.170*** (0.007)	0.121*** (0.009)
Year	Yes	Yes	Yes	Yes	Yes	Yes
Industry	Yes	Yes	Yes	Yes	Yes	Yes
Observations	31141	31141	31141	31141	31141	31141
R-squared	0.431	0.344	0.171	0.133	0.231	0.221

### **3. Xulosa**

Ushbu tadqiqotda energiya tejamkor korxonalarga soliq imtiyozlarining ta'siri o'rganildi. Korxonalarning choraklik statistik ma'lumotlari Difference-in-Difference regressiya usulidan foydalangan holda tahlil qilindi. Dunyo bo'y lab ko'plab davlatlar iqtisodiyotni rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida intensiv yoqilg'i infratuzilmasi va energiya ishlab chiqarish sohalarida ekologik cheklovlarini joriy etmagan va "yashil" iqtisodiyotga o'tishni ortga surib kelgan. Tahlil natijalari resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishda fiskal siyosat muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Bundan tashqari, korxonalar COVID-19 pandemiyasidan keyingi yashil iqtisodiyotga o'tish davrida raqobatbardoshlikni saqlab qolish va o'sish strategiyasi asosini texnologik rivojlanish tashkil etishi o'z isbotini topdi. Energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish korxonalarda moliyaviy cheklovlarini bartaraf etishga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida korxonalarda yangi texnologiyalarga kiritiladigan investitsiyalarni oshishiga olib keladi.

Tahlillar soliq imtiyozlari korxonalarning joriy majburiyatlarini, likvidliligi va ichki pul oqimi kabi biznes ko'rsatkichlari yaxshilanganligini ko'rsatdi. Bular innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va korxonalarni rivojlantirish uchun investitsiyalarni oshirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, soliq imtiyozlari kam energiya sarflaydigan korxonalarning boshqaruv va moliyaviy xarajatlarini kamaytirib, ularning moliyaviy barqarorligini yaxshilaydi va rivojlanishga turtki beradi. Natijada, ushbu kam energiya sarflaydigan korxonalarning rentabelligi ortib, rivojlanish uchun ko'proq imkoniyatga ega bo'ladi. COVID-19 pandemiyasining tarqalish tezligi ma'lumotlari shuni ko'rsatadi, fiskal rag'batlantirish siyosati kam energiya sarflaydigan korxonalarning innovatsion faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi natijalarni inobatga olib, mamlakatda energiya tejamkor texnologiyalarni rivojlantirishda soliq imtiyozlarini taqdim etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim. Zero bu energiya tejamkor korxonalarning yangi texnologiyalarni o'zlashtirishi bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarini kamayishiga olib keladi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

- Foster, V., Tre, J.-P., & Wodon, Q. (2000). Energy prices, energy efficiency, and fuel poverty. *Latin America and Caribbean Regional Studies Programme*. Washington, DC: World Bank.
- González-Eguino, M. (2015). Energy poverty: An overview. *Renewable and Sustainable Energy Reviews*, 47, 377–385.
- Nussbaumer, P., Bazilian, M., & Modi, V. (2012). Measuring energy poverty: Focusing on what matters. *Renewable and Sustainable Energy Reviews*, 16(1), 231–243.